

# YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

№ OC6383300137

Muborak tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limining Xo‘jalik munosabatlariga oid, Pudrat shartnoma loyihasi yuzasidan quydagilarni,

## A N I Q L A D I M:

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining Pudrat shartnomalariga oid moddalar, “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-25-32-moddalari, 144287-sonli lot bayonnomasiga asosan,

“QURILISH BRIGADA INVEST” mas‘uliyati cheklangan jamiyati (tashkilot, korxona nomi) keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi. O‘zining Nizomi(nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ishyurituvchi rahbari S.Eshonov (vazifasi, familiyasi, ismi) bir tomondan, Muborak tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limi (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi, o‘zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosidaish yurituvchi rahbari Sh.Atayeva (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

Shartnomaning umumiy narxi 184 000 000 (Bir yuz sakson to‘rt million) tashkil qiladi.

Ushbu shartnoma buyicha “Pudratchi” “Buyurtmachi”ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan joriy ta‘mirlash ishlarini bajarishni, “Buyurtmachi” bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to‘lojni amalga oshirishni o‘z zimmalariga olish to‘g‘risidagi shartnoma loyihasi,

Muborak tuman Maktabgacha ta‘lim bo‘limi tomonidan 12.09.2022-yilda yuridik xizmat ko‘rsatish markaziga taqdim etilgan. Yuqorida qayd etilganlarga va O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi Qonunning 21-moddasi asosan,

## X U L O S A Q I L D I M:

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq hisoblayman.

Markaz boshlig‘i



E.E.Abdirahmonov

2022-yil “12”.09.

## PUDRAT SHARTNOMASI

**"QURILISH BRIGADA INVEST"** mas'uliyati cheklangan jamiyati (tashkilot, korxona nomi) keyingi o'rirlarda "Pudratchi" deb yuritiladi. O'zining Nizomi(nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosida ishyurituvchi rahbari S.Eshonov (vazifasi, familiyasi, ismi) bir tomonidan, **Muborak tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi** (korxona, tashkilot, muassasa nomi), keyingi o'rirlarda "Buyurtmachi" deb yuritiladi,o'zining Nizomi (nizomi, ustavi, ishonchnoma) asosidaish yurituvchi rahbari Sh.Atayeva (vazifasi, familiyasi, ismi) nomidan, ikkinchi tomonidan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar.

### 1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Ushbu shartnomma bo'yicha "Pudratchi" "Buyurtmachi"ning buyurtmasiga va tuzilgan loyiha smeta hujjatlariga asosan joriy ta'mirlash ishlarini bajarishni, "Buyurtmachi" bajarilgan ishlarni qabul qilib olishni hamda to'lovni amalga oshirishni o'z zimmalariga oladilar.

### 2. SHARTNOMA BO'YICHA KELISHUV NARXLAR

2.1.Buyurtmachi tomonidan taqdim qilingan hujjatlarga asosan joriy ta'mirlash ishlarining ya'ni, shartnomaning umumiy narxi 184 000 000 (Bir yuz sakson to'rt million) so'm 0 tiyinni tashkil qiladi.

2.2. Ta'mirlash ishlarining boshlanishi 12.09.2022yil.

2.3. Ta'mirlashi shlarining tugashi vaqtি 12.11.2022yil.

### 3. TA'MIRLASH ISHLARINI BOSHLASH, BAJARISH VA TUGATISH BO'YICHA SHARTNOMAVIY MUDDATLAR

3.1.Ta'mirlash ishlarini bajarish muddati mazkur shartnomaning 2.3. bandida ko'rsatilgan muddatgacha amalga oshiriladi.

3.2. Shartnomadagi ko'rsatilgan avansni "Pudratchi" olganidan so'ng-ta'mirlash ishlarini boshlaydi.

3.3."Buyurtmachi" tomonidan ta'mirlash ishlarini bajarish davrida "Pudratchi"ga o'zi tomonidan harid qilingan qurilish materiallarini taqdim qilishi mumkin.

3.4.Ta'mirlash to'xtab qolganligi uchun sababchi bo'lgan tomon buning oqibatida kelib chiqadigan har qanday kamomad yoki javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

3.5. Ta'mirlash tugallab foydalanishga topshirish uchun tuzilgan komissiya dalolatnomasi tasdiqlangandan so'ng, ta'mirlash ishlari tamom bo'lgan deb hisoblanadi.

### 4. TO'LOVLAR VA HISOB KITOBLAR

4.1. Ushbu shartnomaning umumiy narxi 184 000 000 (Bir yuz sakson to'rt million) so'm 0 tiyinni tashkil qiladi. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini boshlash uchun "Pudratchi"ga shartnoma narxining 30 % yoki 55 200 000 (Ellik besh million ikki yuz ming) se'm miqdorda oldindan to'laydi. Qolgan 70 % yoki 128 800 000 (Bir yuz yigirma sakkiz million sakkiz yuz ming) so'm ya'ni, yakuniy to'lovni pudratchi" ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat f-2, f-3, yoki dalolatnomaga taqdim qilingandan so'ng amalga oshiriladi.

4.2. "Buyurtmachi" to'lovni pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi.

4.3. "Pudrat" tashkiloti tomonidan shartnomada ko'rsatilgan so'mmadan oshiqcha bajarilgan ishlar uchun "Buyurtmachi" tomonidan to'lovlar amalga oshirilmaydi.

## **5. PUDRATCHINING MAJBURIYATLARI**

5.1. Shartnoma bahosi 184 000 000 (Bir yuz sakson to'rt million) so'm 0 tiyin bo'lgan. Muborak tuman, Sariq MFY hududida joylashgan 14-sonli DMTT binosini va isitish tizimini joriy ta'mirlash ishlarini yuqorida kelishilgan muddatda tugatish.

5.2. Maxsusta'mirlash ishlarini bajarish uchun maxsus yollanma pudratchi tashkilotlarni jal bqladi.

5.3. Har oyning 30 sanasida joriy oyda bajarilgan ta'mirlash ishlari to'g'risidagi tegishli hujjatiarni "Buyurtmachi"ga taqdim qilishi shart. Agar ta'mirlash mazkur shartnomada ko'rsatilgan muddatda pudratchining aybi bilan foydalanishga topshirilmasa, u holda buyurtmachiga quyidagi tartibda jarima to'laydi:

- ta'mirlash muddati 30 kunga kechiktirilsa, shartnoma bahosidan 0,2 % miqdorida;

- keyingi 30 kun uchun shartnoma bahosidan 0,2 % miqdorida;

- undan keyingi muddatlar uchun 5 % miqdorida;

Jarima sanktsiyasi buyurtmachi tomonidan bildirilgan yozma ravishdagi da'vodan keyin 10 kun muddat mobaynida to'lanishi shart.

5.4. Pudratchi shartnomada nazarda tutilgan mablag' doirasida ishlarni bajaradi va shunga muvofiq bajarilgan ishlar to'g'risida 2-sonli dalolatnomani tuzadi.

## **6. BUYURTMACHINING MAJBURIYATLARI**

6.1. Shartnomada ko'rsatilgan 4.1. va 4.2. bandlari buzilsa, "Buyurtmachi" har bir kechiktirilgan kun uchun shartnomaning tulanmagan narxini 0 % miqdorida "Pudratchi"ga jarima to'laydi.

6.2. "Buyurtmachi" ta'mirlash ishlarini o'z vaqtida belgilangan standartlarga va amaldagi qonunchilikka asosan qabul qilib oladi.

6.3. "Buyurtmachi" tasdiqlangan smetasiga muvofiq byudjetda nazarda tutilgan mablag' doirasida shartnoma tuzadi va shartnoma so'mmasiga muvofiq forma 2-3 va dalolatnomani "Pudratchi" bilan birgalikda tuzadi

## **7. KAFOLATLAR**

### **Pudratchi:**

7.1. Barcha ishlar to'liq hajmda va mazkur shartnoma shartlarida belgilangan muddatlarda bajarilishini;

Loyha hujjatlariga hamda qurilish me'yorlari, qoidalari va texnik shartlariga muvofiq barcha ishlarni bajarish sifatini;

O'zi tomonidan ta'mirlash uchun qo'llaniladigan qurilish materiallari, asbob uskunalarini va butlovchi buyumlar, konstruktsiya va tizimlar sifatini, ularning loyiha hujjatlarida ko'rsatilgan sertifikatsiyalarga, davlat standartlariga hamda texnik shartlarga muvofiqligini; Ishlarni qabul qilish va ob'ektdan foydalanishning kafolatlari davrida aniqlangan kamchiliklar va nuqsonlarni o'z vaqtida bartaraf qilishni; Ob'ektdan foydalanilganda muxandislik tizimlari va uskunalarining foydalanish qoidalariga muvofiqligini kafolatlaydi.

7.2. Agar ob'ektdan foydalanishning kafolatlari davrida aniqlanib, ular bartaraf etilgunga qadar foydalanishni davom ettirish imkonini bermaydigan nuqsonlar aniqlansa, u holda kafolat muddati nuqsonlarni bartaraf etish davriga o'zaytiriladi. Nuqsonlar Pudratchi tomonidan uning o'z hisobidan bartaraf etiladi. Mavjud nuqsonlar va ularni bartaraf etish muddatlari Pudratchi va Buyurtmachining ikki Pudratchidan ushlab qolish huquqiga ega.

7.3. Pudratchi nuqsonlar va chala ishlari ko'rsatilgan dalolatnomani tuzishdan yoki imzolashdan bosh tortgan taqdirda, ularni tekshirib chiqish "Davarxitektqurilishnazorat" organlari tomonidan amalga oshiriladi, bu tomonlarning kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf ishlarni, jumladan uskunalarining kamchiliklarini dalolatnomada ko'rsatilgan muddat ichida bartaraf etmasa, u holda Buyurtmachi mazkur shartnomaning 4.1. bandida nazarda tutilgan kafolat so'mmasini etmaydi.

Joriy ta'mirlash ishlari qabul qilib olish dalolatnomani imzolangan kundan boshlab kamida 3 uch oy etib belgilanadi.

## **8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI**

8.1. Ushbu shartnoma bo'yicha yoki u bilan bog'liq holda taraflar o'rtaida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o'rtaida muzokaralar olib borish yo'li bilan hal etiladi.

8.2. Muzokaralar olib borish yo'li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

## **9.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI**

9.1. Ushbu shartnoma O'zbekiston Respublikasi byudjet kodeksining 122-moddasi 3-bandiga muvofiq tegishli tartibda g'aznachilik bo'linmalarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin qonuniy kuchga kiradi va 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

## **10. FORS-MAJOR**

10.1. Taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'limgan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo'limgan holatlar (yengib bo'lmas kuch) oqibatida majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlar jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

10.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatlari organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

10.3. O'z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo'lmas kuchning mavjudligi va uning shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga ta'siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

10.4. Agar yengib bo'lmas kuch holatlari uzlusiz \_\_\_ oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo'lmasa, mazkur shartnoma taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo'li bilan bekor qilinishi mumkin.

## **11. KORRUPSIYAGA QARSHI KELISHUV**


11.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni ular, ularning xodimlari, affillangan shaxslar, benefitsiari va shartnomanı amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilishda, moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu xarakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.



11.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalalar buzulganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganida darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

11.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption xolatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomanı bekor qilish xuquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

11.4 Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomanı bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga etkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'rilgan zararlarni qoplashni talab qilishiga xaqli emas.

## 12. Tomonlarningyuridikmanzillariva bank rezervitlari

<p><b>"PUDRATCHI"</b>  <b>"QURILISH BRIGADA INVEST" MCHJ</b>          (ижро чининг номи)</p> <p>Manzil: Kasbitumani, Maymanoqsh          Bank nomi: Toshkent sh, TIF Milliy bank bosh ofisi          MFO: 00450          INN: 303 341 451          X/p 20208000700483494001          Tel: 91-218-20-10</p> <p>Rahbar:            (Ф.И.Ш.)          M.O'.</p> <p>S. Eshonov  </p>	
--	--

<p><b>"BUYURTMA CHI"</b>  <b>Muborak tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi</b>          (ijro chining nomi)</p> <p>Manzili : Muborak tuman, Tong mahallasi          Tel/faks: 67-22-4-00          Byudjetdan mablag' oluvchi          INN: 305 153 763</p> <p>SH/hr: 100022860102347091100251018          G'aznachilik bo'linmasi nomi:          O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi          G'aznachiligi          H/r: 23 402 000 300 100 001 010          Bank nomi: Markaziy bank Toshkent sh bosh boshqarmasi HKKM          MFO: 00014 INN: 201 122 919</p> <p>Rahbar:            (F.I.SH.)          (imzo)          M.O'.</p> <p>SH.F. Ataeva  </p>	
---	--

	<p>Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan.          Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.</p>	
	Imzolovchi F.I.SH.	SHOHISTA ATAYEVA FATXULLAYEVNA
	Imzolangan sana	13 сен 2022 09:24
	Hujjat kodi	VI5353842004
	Hulosa kodi	OC6383300137



ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ КАШКАДАРӢ ВИЛОЯТИ  
ҚАСИИ ТУМАН ХОКИМЛИГИ  
Тадбиркорлик субъектларини рӯйхатга олини  
ИҲСПЕКЦИЯСИ  
Юридик шахси давлат рӯйхатидан ўтказишнамеси ҳақида

## ИУВОХНОМА

Решер № 169

№ 0000169

20 маи 2018 таг

Мажбут шахарчаси

Мажкур иувоннома: «QURILISH BRIGADA  
INVEST» масалалиги чекланган жамиятин

(Давлат таобиати тубик (юни)  
көрдик шахс неконъ (адабкор), фермада хөжигандар  
юргизишни таобиати тубик (юни) маддатаси туридануни)

Гарножон Сакуний шахса

Мажкур шахса

Интишори маддатаси таобиати тубик (юни) маддатаси	142	Интишори маддатаси таобиати тубик (юни) маддатаси	152
М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.
1710237568	25575428	1710237568	25575428
“QURILISH	“QURILISH	“QURILISH	“QURILISH
BRIGADA INVEST	M.G.H.J.	BRIGADA INVEST	M.G.H.J.
М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.	М.Х.Б.Т.
С.Т.Б.Р.	С.Т.Б.Р.	С.Т.Б.Р.	С.Т.Б.Р.
30.3.2018	30.3.2018	30.3.2018	30.3.2018

Мажкур иувоннома таобиати тубик (юни) маддатаси

А.М.Джононов

-sonli shartnomaga  
ILOVA

## Korrupsiyaga qarshi qoidalarining ASOSIY SHARTLARI

1. Tomonlar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga zid keladigan har qanday harakatlarni amalga oshirmaydilar, shu jumladan pora, ya'ni Muborak tuman Maktabgacha ta'lif bo'limixodimi o'z xizmat majburiyatlaridan foydalangan holda pora bergen shaxsning manfaatlarini ko'zlab muayyan harakatlarni sodir etishi yoki sodir etmasligi shartligi yohud mumkinligi uchun moddiy qimmatliklarni yoki mulkiy naf olish uchun quyidagi harakatlarni qilmaydi:

pora berishni taklif qilish yoki va'da berish;

tovlamachilik qilish;

pora sifatida pul to'lash;

bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik berish.

Tomonlar ushbu harakatlarga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rilibshiga kafolat beradi.

2. Agar shartnoma bo'yicha bir Tomon Muborak tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi xodimining axloqqa to'g'ri kelmaydigan va ushbu shartnoma yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid keladigan xatti-harakatlariga, shu jumladan, korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishga majburlashdan iborat bo'lgan faktlarga duch kelsa, bu haqda quyidagi aloqa kanallaridan biri orqali xabardor qilishi kerak:

korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan ishonch telefoni;

Telegram-kanali ("@anticorbot");

Muborak tuman Maktabgacha ta'lif bo'limi rasmiy veb-saytida joylashtirilgan shakl yoki elektron pochta.

### TOMONLAR:

"QURILISH BRIGADA INVEST" MCHJ  
rahbari S.Eshonov



(imzo) *Jurz*

Muborak tuman Maktabgacha ta'lif  
bo'limi mudiri Sh. Atayeva



(imzo)